

## **DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI YOSHLAR ONGIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH**

Po'latov Ro'zimurod Farhod o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Gumanitar Fanlar Fakulteti 2-Bosqich Talabasi.

polatovrozmurod6@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada bugungi kunda butun jaxonga xavf solayotgan diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlarning zamon va makonga moslashib shakl shamoyilini o'zgartirib yanada xavfli tus olayotgan tahlikali davrda yurtimizda yoshlar ongida buzg'unchi g'oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetni shakllantrishning dolzarbliji va ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Diniy esktremizm, xavfsizlik, barqarorlik, mafkuraviy immunitet, diniy bag'rikenglik, diniy e'tiqod.

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется актуальность и важность формирования идеологического иммунитета в сознании молодежи нашей страны в опасный период, когда религиозно-экстремистские и террористические организации, представляющие угрозу всему миру, меняют свой облик во времени и пространстве и становятся более опасным.

**Ключевые слова:** Религиозный экстремизм, безопасность, стабильность, идеологический иммунитет, веротерпимость, религиозное убеждение.

### **ANNOTATION**

This article analyzes the relevance and importance of forming ideological immunity in the minds of young people in our country during the dangerous period, when religious extremist and terrorist organizations, which are a threat to the whole world, are changing their shape in time and space and becoming more dangerous.

**Keywords:** Religious extremism, security, stability, ideological immunity, religious tolerance, religious belief.

mafkuraga qarshi mafkura bilan kurashmog'imiz lozim. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy g'oya va mafkurasi asosida yoshlar ongida keng dunyoqarash va e'tiqodini, mustaqil fikrlash layoqatini to'g'ri shakllantrish dolzarb vazifa sifatida qaralishi zarur. Birinchi Prizdentimiz I. A. Karimov "Maqsadimi - erkin shaxsni tarbiyalash" - deb bu borada har tomonlama mustaqil, o'zining va millatning qadr qimmatini teran idrok etuvchi

shaxsiy fikrlarini sobit turib himoya qila oladigan yosh avlodni voyaga yetkazishni nazarda tutgandilar. Hozirgi kunda yoshlarimizning asosiy vaqtini, e'tiborini o'g'rilar yordamida tarmoqlar global muommoga aylandi desak to'g'ri bo'ladi. Yoshlarimizning ongini buzg'unchi g'oyalarga og'dirishni bosh maqsad qilib olgan ekstrimistik, terroristik tashkilotlar va guruhlar tomonidan tashkil qilingan ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatni cheklash va tugatish maqsadida Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudning 2019-yil 12-martdagি qaroriga ko'ra ekstrimistik ruhda deb topilgan sahifalar va kanallar nomlari ro'yxati e'lon qilina boshlandi. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagи **"Ekstrimizimga qarshi kurashish"** to'g'risidagi qonuning 14-11- moddasiga muvofiq quyidagilar ekstremistik ruhda ekanligi e'lon qilindi, "Abu Sallox darsliklari, Jannat oshiqlari, Shom ovozi Tavxid va Jixod, Islam Abu Khalil, Polvon Novqatlik, Soxib Maxmudov, Farruxbek Abdullayev, Mamarahimov Abduraxim Mirkomilovich, Muxojir Polvon, Abu Aisha, Turkiston, Xurriyat info, Najot , Al Va'y, Usul Fiqx, Mustalaxul hadis, Darslardan qisqa lavhalar, Fiqx ahkomlari, Tavxid darsi, Qiyomatdan oldingi fitnalar, Savol va javob, Foida va qoidalar, Tafsir darslari, Islomni buzuvchi amallar darslari, Namoz va Benamozga taluqli masalalar, Ayollar darslari silsilasi, Aqiyda darslari, Silsilaviy darslar va mulohazalar, Muhum darslar, Aqiydatul vosisiya, Mustamxul hadis, Al Fatx, Talabalar uchun darslar kabilar ekstremistik ruxdagi materiallar hisoblanadi.

Yosh avlodning diniy ekstrimistik va terroristik tashkilotlarning faoliyatiga aralashmasliklari va ularni targ'ib etmasligi maqsadida **O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 155-moddasida terrorizm mohiyati, 155(1)-moddasida** tayyororanayotgan yoki sodir etilgan terorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik, 5155(2)-terorchilik faoliyatni amalga oshirish maqsadida o'quvdan o'tish, chiqish yoki harakatlanish, 155(3)- terorrizmni moliyalashtrish, 6156- Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish, usbu moddalarning barchasi diniy ekstrimistik va teroristik tashkilotlar faoliyatiga to'siqnlik qilish uchun hamda yosh avlodning o'z kelajagini barbot qilmasligi davlat va jamiyat xayotini xavf ostida qoldirmasligi uchun huquqiy asos sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining terroristik tashkilotlar safiga qo'shilib qolgan yoshlar bilan suhbat o'tkazilganda ularning ko'pchiligi moddiy ehtiyoj sabab chet el davlatlarida ishlayotgan immigrantlar ekanligi va ko'p hollarda boy oilaning farzandlari ekanligi aniqlanmoqda. Diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar ularni yagona islom xalifali davlati asosida birlashish maqsadida ekanligi va islom shariat qonunlari asosidagi huquqiy davlat tuzish maqsadida harakat qilishlari hamda birlashishi kerakligi haqida ularga audio, video va o'zlarini tomonidan chop etilgan kitoblarni jo'natib ularning ongiga ta'sir o'tkazganligi haqida ma'lumot beradi. Adashganligini anglagan guruhi safidan chiqmoqchi bo'lganlarni oila azolarini o'ldirishlarini tahdid qilib ularni o'z safida qoldirgan holatlar ham uchramoqda.

Yoshlarimiz millatimiz, xalqimiz va ertangi istiqbolimiz tayanchi hisoblanadi. Yoshlarimizning qobiliyatlarini va iste'dodlarini ro'yobga chiqarish, ularga munosib hayot tarzini berish maqsadida davlatimiz tomonidan keng imkonyatlar va samarali islohatlar amalga oshirilmoxda. Ammo yengil hayot kechirishga o'rganib qolgan, yuksak bir maqsadni oldiga qo'ymagan, o'z ona vataniga, xalqiga nisbatan daxldorlik hissini tuymayotgan yoshlarimizning borligi bu bizning fojeamizdir. Negaki bu tarbiya jarayonida yo'l qo'ygan jiddiy xatolarimiz mahsuli va hosilidesak xato bo'lmaydi. E'tiborsizlik, loqaydlik tarbiyada faqat biryoqlama

harakatlanishimiz kutulmaganda salbiy jixatini namoyon qilishi turgan gap. Bu jarayonni xitoyliklar bambuk daraxtiga qiyoslashgan. Bambuk ekilgach 4 yilgacha popukchalari yer ostida rivojlanadi. Nimjon ko'chat bo'y ko'rsatib turadi. Ammo 5-yilga kelib bo'yi 25 metrgacha cho'ziladi. Tarbiyadagi nuqsonlarimiz ham bir kun kelib bambuk daraxtidek bo'y ko'rsatganida ota-onalarimiz qayerda xato qilgan ekanman deb afsus nadomat chekishadi. Ammo tarbiyani hech ham ortga surib bo'lmasligi bu to'xtovsiz davom etadigan jarayon ekanligi haqida xulosa qilishmaydi. Tabiiyki barchamizda, yoshlarimizni ekstremizm to'riga, changaliga tushib qolishdan saqlash uchun avvalo nima qilishimiz kerak degan haqli savol tug'iladi. Ogoh bo'lishimiz ularni bolaligidan sabrli bo'lishga, mustaqil fikr yuritishga o'rgatishimiz zarur.

Din niqobidagi ekstremizm tahdidi quyidagilarda ko'rindi, aqidaparastlikni yoshlar ongiga yoyish orqali islo hatchchi davlatga ishonchni yo'qga chiqarishga urinish, soxta va haqiqiy dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshiliklar keltirib chiqarish, g'arba "islomlashtrilgan" sharqda esa aksincha "dinsiz" daxriy shaklida ko'rsatib O'zbekistonning xalqaro obro'siga putur yetkazish va boshqalar.

Xalqaro terrorizm bir davlat hududi doirasidan tashqariga chiqadigan terorizm bo'lib odamlarning behuda halok bo'lishiga olib keluvchi, davlatlarning diplomatik faoliyatni buzuvchi xalqaro miqyosdag'i ijtimoiy xavfli harakatlar yig'indisidir. Ma'lumot o'rnida aytish keraki 1968-1980-yillar davomida ekstremistik va terroristik tashkilotlar tomonida 6700 ta terorchilik amaliyoti sodir etilgan bo'lib, natijada 3668 kishi halok bo'lib 7474 ta kishi turlicha tan jaroxatlari olganlar, 2001-yil 11-sentyabrdagi voqealar 3000 kishini umriga zomin bo'lgan edi.

Zo'ravonlika tayangan ekstremizm hamda terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashishning dolzarb muammolari yosh avlodni buzz'unchi g'oyalar ta'siridan himoyalash bo'yicha siyosiy huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy profilaktika vositalarini yanada takomilashtrishni taqozo etmoqda. Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida, "Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini na'moyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "Virusi" tarqalishini oldini olishdur" deya takidlاب o'tdilar. Shu ma'noda davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatlarga BMT ning yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish hamda BMT Bosh Assambleyasining ma'rifat va diniy bag'rikenglik deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasni qabul qilish taklifini kiritdi. O'zbekiston barchani e'tiborini musulmon olami uchun muxum yo'naliш "Ma'rifatli islom" g'oyasiga qaratdilar.

**Xulosa.** Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda bunday radikal kuchlarga qarshi tura olishimiz va kurashmog'imiz darkor. Har bir diniy ekstremizm va terrorizm faqat zo'ravonlik va tahdidlarga asoslangan bo'lib, ular hech qachon jamiyat rivojiga ijobji tasir ko'rsatmaydi. Ularga qarshi ayovsiz, tizimli va birdamlikda kurash olib borish lozim. Yoshlarni ongida sog'lom dunyoqarashni shakllantirish, sog'lom mafkura egasi qilish va ularni o'zlarini mustaqil to'g'ri yo'lni tanlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Oilalarimizdagi ma'naviy muhitning sog'lomligi, atrofimizdagi insonlar hatti-harakatlariga, ularda bo'layotgan o'zgarishlarga e'tiborli bo'lish barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lishi zarur. Shunday ekan bugun barchamiz nafaqat

o‘zimizga balki atrofdagi yosh avlodga e’tiborli, ularga talabchan bo‘lsak, ularni komil inson sifatida tarbiyalash g‘oyasi asosida birlashtirsak hech qanday xavf-xatar bizga rahna sola olmaydi. Shu sababdan yoshlар ongida kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantrish asosiy vazifamiz ekanligini bilishimiz darkor.

**Foydalanimgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.:O’zbekiston, 1997
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi <https://president.uz/oz/lists/view/1063>
3. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘qrисida»gi Qonuni. // Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: «Sharq» nashriyoti. 1997-y.
4. Холикова, М. А., Матниязова, Ҳ. Ҳ., & Мавлянова, Г. Д. (2022). Самарқанд вилояти шароитида тақорорий экин сифатида экилган маҳаллий ва хорижий соя навларида турли ривожланиш фазаларида баргларида хлопорласт пигмент микдорини ўрганиш. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 372-381.
5. Djambulovna, M. G. (2022). About Some Aspects of Soybean Cultivation Technology. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 91-94.
6. Mavlonova, G. D. (2022). Mahalliy soya navlarining marfofiziologik ko“rsatgichlarini hosildorlikka ta“siri. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 906-911.
7. Мавлянова, Г. Д. (2020). Toshkent viloyati sharoitida mahalliy soya navlarining fizologik xususiyattlarini o‘rganish. *Science and Education*, 1(Special Issue 3), 6-14.
8. Мавлянова, Г. Д. (2020). НАЪМТАК ЎСИМЛИГИ ЗАРАРКУНДАЛАРИ. *Scientific progress*, 1(1), 155-162.
9. Мавлянова, Г. Д. (2020). Ўзбекистонда томчилатиб сугориш ва унинг самарадорлиги. *Scientific progress*, 1(2), 63-66.
10. Abdullaev PhD, A., & Ochilov, O. (2021). ACCOUNTING AND ANALYSIS OF INVESTMENTS UNDER ACTIVE INVESTMENT POLICY: NECESSITY, PURPOSE AND OBJECTIVES. *International Finance and Accounting*, 2021(2), 29.
11. Qodirov, M. M., Ochilov, O., & Voxidov, E. (2020). UMUMTA’LIM MAKTABLARI VA AKADEMİK LISEYLARDA FIZIKANI O ‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI TO ‘G ‘RISIDA. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 1(1), 1-11.
12. Қодиров, М., Очилов, О., & Вохидов, Э. (2020). УМУМТА’ЛИМ МАКТАБЛАРИ ВА АКАДЕМИК ЛиЦЕЙЛАРДА ФИЗИКАНИ ЎҚИТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ ТЎҒРИСИДА. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 1(1), 1-11.
13. Очилова, О. О., Очилов, О., & Гуламов, Р. А. (2020). ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОПУСКАНИЯ ПОЛЯРИЗОВАННОГО СВЕТА ЧЕРЕЗ ДВУХСЛОЙНУЮ МАГНИТНУЮ СТРУКТУРУ. *Наука, техника и образование*, (10 (74)), 6-10.
14. Очилов, О., Мисиров, Ш. Ч., Абдуллаев, Ж. Э. У., & Туропов, М. Т. (2020). АВТОМАТИЗИРОВАННЫЙ ТРЕНАЖЕР ДИНАМИЧЕСКОЙ ПЛАТФОРМЫ

- ТЯЖЕЛЫХ ТРАНСПОРТНЫХ МАШИН. *Наука, техника и образование*, (10 (74)), 23-27.
15. Мирсаатов, Р. М., Очилов, О., Абдуллаев, Ж. Э. У., & Кенжаев, А. А. (2019). Устройство для определения шелконосности коконов без их взрезки. *European science*, (6 (48)), 30-36.
16. Мирсаатов, Р. М., Очилов, О., Сайалиева, Ш. С., & Махмудова, Д. Х. (2018). УСТРОЙСТВО ДЛЯ КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА КАЧЕСТВЕННЫХ ПАРАМЕТРОВ ШЕЛКОВИЧНЫХ КОКОНОВ БЕЗ ИХ ВЗРЕЗКИ. *Интернаука*, (14-2), 19-22.
17. Очилов, О. (2018). Фотоупругая и ростовая оптическая анизотропия эпитетаксиальных пленок редкоземельных ферритов-гранатов. *Вестник науки и образования*, I(1 (37)), 5-8.